

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI MAHKUMLARINING SAYLASH
HUQUQINI TA'MINLASHDA SIYOSIY PARTIYALARNING O'RNI

Nasimov Ozod Botir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarining saylash huquqini ta'minlashda siyosiy partiyalarning o'rni masalalari yoritilgan. Siyosiy partiyalar boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan bir qator umumiy jihatlarga ega. Saylovlar – fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlovchi siyosiy huquqi sanaladi.*

Kalit so'zlar: *savlov, saylov kodeksi, jazoni ijro etish muassasalari, saylash huquqi, siyosiy partiyalar.*

Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy hayotini tashkil qilishning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Aynan partiyaviy tizim tufayli demokratiyaning siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi, imkoniyatlar tengligi kabi tamoyillarini o'zida mujassam etgan siyosiy partiyalar va ularning vakillari o'rtasida doimiy muloqot/raqobat ta'minlanadi. Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, jamiyatda o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda siyosiy partiyalar katta rol o'ynaydi.

Hokimiyatni qo'lga kiritish har qanday partiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Partiya qaysi ijtimoiy guruh yoki sinfnig tashabbusi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, aynan shularning manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish vositasi hisoblanadi [1]. Partiya o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'ygan bo'lsa ham ularga hokimiyat uchun kurash, o'z hukumatini shakllantirish yoki koalision hukumat tarkibiga o'z vakillarini kiritish orqali erishadi. Hukmronlikni qo'lga kiritgan partiya davlatning maksimal darajada o'ziga vakolat bergan ijtimoiy-sinfy kuchlarning manfaatlarini yo'lida foydalanishga intiladi.

Siyosiy partiyalar boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan bir qator umumiy jihatlarga ega. Xususan, muayyan tashkilotning hamda hokimiyat va boshqaruv apparatining mavjudligi; ularning a'zolarini birlashtirib turuvchi va tarafdorlarni jalb etuvchi g'oyaviy tamoyillarning mavjud bo'lishi; muayyan dasturiy qoidalarning qayd etilishi (ular ochiq ifodalanishi ham, yashirin mavjud bo'lishi ham mumkin); a'zolar va tarafdorlardan iborat ommaviy negizning mavjudligi shular jumlasidandir. Partiyalarni boshqa tashkilotlardan ajratib turuvchi eng asosiy belgisi shuki, ular faoliyati davlat hokimiyatini egallash, davlat siyosatini shakllantirish va davlat hokimiyatini amalga

oshirishda ishtirok etish xuquqini qo‘lga kiritish uchun ochiq va aniq ifodalangan kurashga yo‘naltirilgan.

Siyosiy partiyaning mohiyati uning ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy negizi; partiya rahbariyatining tarkibi, manfaatlari va maqsadlari; tashkilotning dasturiy qoidalari; uning siyosiy xatti-harakatlarining ob‘yektiv yo‘naltirilganligi kabi xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir [2].

Partiyalararo raqobat asosiy demokratik siyosiy institutlardan biri bo‘lib, u quyidagi bir qator maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi: hokimiyat uchun kurashni institusional tartibga solish, jamoat manfaatlarini ifodalash va jamlash, siyosiy elitani tanlash va h.k. Siyosiy tizimning rivojlanishida farovonlik, barqarorlik va ijobiy dinamikani ta‘minlash, hokimiyatdagi partiyalarning saylanishi va almashuvi natijasida yuzaga keladigan siyosiy munosabatlarning muntazam takrorlanishini ta‘minlash, partiyalarning o‘z faoliyatiga professional tayyorgarligini kuchaytirishdan iborat. Qolaversa, partiyalararo raqobat jamiyat va siyosatdagi qarama-qarshilik va ziddiyatlarni institusional darajaga ko‘chirishning samarali vositasidir. Nihoyat, partiyalararo raqobat ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishni shakllantirish va amalga oshirish doirasida siyosiy taraqqiyot yo‘nalishini demokratik asosda shakllantirishga yo‘naltiradi.

Saylovlar – fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta‘minlovchi siyosiy huquqi sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 5-moddasiga asosan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari mazkur muassasalarning ma‘muriyati bilan birgalikda saylovchilarni saylov to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, saylovga tayyorgarlik ko‘rish, uni o‘tkazish jarayonlari, saylov o‘tkazish vaqti va tartibi hamda nomzodlar haqida xabardor qilib boradi. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, “Xalqimizga xos bo‘lgan insonparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillari asosida jazoni o‘tayotgan shaxslarning haq-huquqlarini ta‘minlash tizimini ham takomillashtirish vaqti keldi” [3].

Belgilangan tartibga ko‘ra, saylash huquqiga ega mahkumlar qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro‘yxatiga kiritiladi. Saylovchilarning ro‘yxatlari esa mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi va saylovchilar yagona elektron ro‘yxatiga kiritiladi.

Mahkumlarning saylash huquqi va undan foydalanish tartibi bo‘yicha jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun targ‘ibot tadbiri o‘tkaziladi. Saylov kuni qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining ma‘muriyati mahkumlarning saylov

uchastkasiga kirib chiqishi va xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek, ichki tartib-qoidalariga rioya etishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarining saylovdagi ishtiroki, saylov instituti, partiyalararo raqobatni tashkil etish tizimi kabi omillar inson sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ifodalovchi oliy qadryatlarning biri ekanligini, jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarining fuqarolik va konstitusiyaviy huquqlarining ta'minlanishi demokratik jamiyatning muhim indikatori ekanligini ko'rsatadi.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fuqarolik jamiyati asoslari: uquv kullanma. A. Jaliyov, U. Muhammadiyev, K. Juraev va boshq. -T., 2015, -B. 199-200.
2. Грановский С.А. Прикладная политология. -М.: Флинта, 2004. - С. 81.
3. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.
<https://president.uz/uz/lists/view/2180>